

2019-yil

**2018 - 2019 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM
MAKTABLARINING**

**7 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN ONA TILI FANIDAN
MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN**

DIKTANT UCHUN MATNLAR

ONA TILI

Telegram kanal: @uzimtihon

Murojaat uchun: uzimtihon_admin

Diktan uchun matnlar:

Yurtimning tarixiy obidaları

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy, madaniy merosga e’tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo‘qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug‘ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan buniyod etilgan obidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta’mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug‘ qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta’mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Burhoniddin al-Marg‘inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug‘ allomalarimizning sha’nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko’tardi.

(102 ta so`z)

Kitob o‘qishning hikmati

Ko‘plab kitob o‘qish, o‘qiganda ham tushunib o‘qishda hikmat katta. Kitob o‘qishning foydasi haqida ulug‘ alloma Abu ali ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu lavha diqqatga sazovor.

Aytishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo‘lgan, ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan. Bir tasodif tufayli Ibn Sino o‘scha kutubxonaga kirish va kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi

Kunlardan bir kuni amir kasal bo‘lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir uni saroya chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo‘lgan amir uni Saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va «Tila tilagingni!» deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so‘raydi. Amir ruxsat beradi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

(M.Qoriyev)

Mardlar qo‘riqlaydi vatanni

Barchamizga ma'lumki, Vatanni himoya qilishdek eng ulug‘ va olijanob, sharaflı ish bo‘lmasa kerak. Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o‘z burchini o‘tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami, deb qabul qilingan. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o‘g‘lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo‘lda erishgan eng katta yutug‘imizdir.

Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g‘urur bilan, minnatdorchilik bilan e’tirof etmoqda. Siz-u bizga tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi yo‘lida qanchadan qancha insonlar jonlarini fido qilishgan. Bobolarimiz Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro kabi qancha vatandoshlarimizni namuna sifatida keltirish mumkin.